

DAVLAT BUDJETI TAQCHILLIGINI MOLIYALASHTIRISH YO‘LLARI

Ch. Qulmatov

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik
va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali dotsenti
qulmatovchori32@gmail.com

Аннотация

В данной статье раскрывается сущность дефицита государственного бюджета и рассматриваются методы его финансирования, этапы развития. В статье с использованием метода сравнительного анализа дана авторская оценка современного состояния сокращения дефицита государственного бюджета страны.

This article reveals the essence of the state budget deficit and its methods of its financing and the stages of development are being considered. This article, using the method of comparative analysis was given the author's (assessment) evolution of the current state of reducing the state budget deficit of country.

Kalitli so‘zlar: davlat, qonun, vazifalar, budjet, budjet tizimi, daromadlar, soliqlar, xususiylashtirish, xarajatlar, taqchillik, profitsit.

Introduction

Hozirgi davrda davlat budjeti taqchilligi muammosi nafaqat iqtisodchi olimlarning, balki dunyodagi qashshoq yoki rivojlanayotgan mamlakatlar bilan bir qatorda iqtisodiyoti taraqqiy topgan mamlakatlar hukumatlarining ham asosiy diqqat-e’tiboriga tushgan umumiqtisodiy holat hisoblanadi.

Mamlakatda davlat budjetining taqchilligi davlat oldiga qo‘yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Ta’kidlash lozimki, iqtisodiyoti taraqqiy topgan mamlakatlarda davlat budjeti taqchilligi har doim ham salbiy holatni bildirmaydi.

Mamlakatimizda davlat budjeti taqchilligi muammosini o‘rganish bilan birga, iqtisodiy taraqqiy topgan va rivojlanayotgan mamlakatlarning davlat budjeti taqchilligi yuzaga chiqish sabablarini tahlil etish va ularda budjet taqchilligini qisqartirish bo‘yicha amalga oshirayotgan choratadbirlarni o‘rganish, bizga, ushbu sohada kelajakda yo‘l qo‘yilishi mumkin xatolarning oldini olish imkoniyatini yaratadi.

Budjet kodeksining 151-moddasida davlat budjeti taqchilligi:

belgilangan normativlar bo‘yicha davlat aktivlarini sotishdan olingan daromadlarning O‘zbekiston Respublikasi respublika budjetiga ajratmalari;

O‘zbekiston Respublikasi respublika budjeti mablag‘larining moliya yili boshidagi qoldiqlari; davlat tomonidan mablag‘ jalb qilish;

qonunchilikka muvofiq boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi deb ko‘rsatilgan.

2023-yilda O'zbekistonning konsolidatsiyalashgan budjeti defitsiti rekord daraja — 59 trln so'mni tashkil etib, avvalgi yillardagi ko'rsatkichlardan ancha yuqori bo'ldi. O'tgan yil oxirida hukumat xarajatlar chegarasini ushlab tutolmagani sababli parlament orqali limitni oshirgandi. 2023-yil yakuniga ko'ra, O'zbekiston konsolidatsiyalashgan budjeti defitsiti 59 trln so'mni (Markaziy bankning amaldagi kursi bo'yicha 4,68 mlrd dollar) yoki yalpi ichki mahsulotning 5,5 foizini tashkil qildi, deya xabar berdi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.

Konsolidatsiyalashgan budjet davlat budjeti, davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari hamda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi (suveren fond) mablag'larini o'z ichiga oladi.

Konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari 321 trln so'mni (2022-yilda — 286,5 trln), xarajatlari 380 trln so'mni (321,7 trln) tashkil etdi.

Defitsit oldingi yillardagidan ancha oshdi:

- 2019-yilda — 13,19 trln so'm (yalpi ichki mahsulotga nisbatan 2,5 foiz);
- 2020-yilda — 26,1 trln so'm (yalpi ichki mahsulotga nisbatan 4,5 foiz);
- 2021-yilda — 40,8 trln so'm (yalpi ichki mahsulotga nisbatan 5,6 foiz);
- 2022-yilda — 35,2 trln so'm (yalpi ichki mahsulotga nisbatan 4 foiz).

So'nggi to'rt yil ichida hukumat yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 foizlik defitsit bo'yicha chegarani biron marta ushlab tutolmadi va parlamentdan hukumat xarajatlari chegarasini oshirishni bir necha bor so'radi.

Davlat budjetining o'zi ham tasdiqlanayotganda daromadlar xarajatlardan ko'proq bo'lishi prognoz qilinganiga qaramay (227,87 trln ga nisbatan 232,1 trln so'm), yilni defitsit bilan yakunladi. Amalda xarajatlar 281,1 trln so'mni tashkil etib, daromadlardan 49,4 trln so'mga (231,7 trln so'm) oshib ketdi.


Shuningdek, O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining (mamlakat suveren jamg'armasi, oltin, mis va gazni ma'lum chegaralangan narxlardan yuqori sotishdan daromad oladi) daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi farq 11,7 trln so'mni tashkil etishi kutilgandi, lekin xarajatlar (16,2 trln ga 11,3 trln so'm) daromaddan 4,9 trln so'mga ko'proq bo'ldi.

Shu bilan birga, 2023-yilgi davlat budjeti to'g'risidagi qonunga kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, jamg'arma xarajatlari 39 trln so'mni tashkil etdi. Fond mablag'laridan budjet taqchilligini qoplash uchun foydalanilgan.



Ijtimoiy sohaga jami 137,2 trln so'm yo'naltirildi: ta'limga — 61,2 trln so'm, sog'liqni saqlashga — 31,1 trln so'm, madaniyat va sportga — 5,3 trln so'm, fanga — 1,7 trln so'm. Nafaqalar, pensiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlar uchun 19,2 trln so'm ajratildi.

Iqtisodiy xarajatlarning eng katta qismi gaz narxlari o'rtasidagi farqni qoplash uchun subsidiyalar hisobiga to'g'ri keldi — 18 trillion so'm.



Davlat budjeti xarajatlarining asosiy qismini ish haqi tashkil etdi — 93 trln so'm (2022-yilda — 79,8 trln). Boshqa xarajatlar 33,4 trln so'm miqdorida bo'lgan.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq makroiqtisodiy va fiskal barqarorlikni ta'minlash, shuningdek davlat qarzi oshishining oldini olish maqsadida qonun bilan konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligi YAIMga nisbatan 3 foiz miqdorida belgilanmoqda.

Qonunda xarajatlarni maqsadliligi va samaradorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Budjet intizomini ta'minlash hamda budjet taqchilligi cheklangan miqdorining oshib ketishiga olib kelishi mumkin bo'lgan davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari hisobidan qo'shimcha xarajatlar faqat qo'shimcha daromad manbai mavjud bo'lganda yoki boshqa xarajatlarni qisqartirish hisobiga amalga oshirilishi nazarda tutilmoqda.

2025 yil uchun davlat kafolati ostida tashqi qarzlarini jalb qilish bo'yicha yillik imzolanadigan yangi bitimlarning cheklangan hajmi 5,5 mlrd AQSH dollari, shundan Davlat budjetini qo'llab-quvvatlash, shu jumladan budjet taqchilligini moliyalashtirish uchun 3,0 mlrd AQSH dollari, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun 2,5 mlrd AQSH dollari miqdorida belgilanmoqda. Davlat qarzi portfelini diversifikatsiya qilish hamda valyuta xatarlarini kamaytirish maqsadida 2025 yil uchun O'zbekiston Respublikasi nomidan chiqariladigan davlat qimmatli qog'ozlarining cheklangan sof hajmi – 30,0 trln so'm miqdorida qayd etilmoqda.

Davlat tomonidan qabul qilinadigan majburiyatlar (sotib olish yoki to'lab berish) va tasdiq xatlari berilishi talab qilinadigan barcha davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosidagi imzolanadigan yangi loyihalar qiymatining yuqori chegarasi 6,5 mlrd AQSH dollari miqdorida belgilanmoqda. O'zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan budjetining 2025 yilgi daromadlari 431,0 trln so'm va xarajatlari 480,5 trln so'm, taqchilligi 49,5 trln so'mga prognoz qilinmoqda.

Budjet taqchilligini moliyalashtirishning har qaysi holatini iqtisodiyotga ta'siri bir xil bo'lmaydi, shuning uchun, moliyalashtirish manbalarini tahlil etish talab etiladi. Agar taqchillikni moliyalashtirish manbalarini yanada aniqlashtiridigan bo'lsak, yuqoridagi ikki guruhning biriga tegishli bo'ladigan quyidagi an'anaviy manbalar mavjudligini ko'rish mumkin:

- Markaziy bankdan qarz olish yoki taqchillikni emissiyali moliyalashtirish (pulli moliyalashtirish).
- Tijorat banklaridan qarz olish (qarzli moliyalashtirish).
- Mablag'larni mamlakat ichkarisidagi bank bo'lmagan sohalardan qarz olish (qarzli moliyalashtirish).
- Valyuta zaxiralarini ishlatilishi, yoki tashqi davlatlardan qarz olish (qarzli moliyalashtirish).
- Davlat mulkini sotish va boshqa noinflyatsion manbalar"

Xulosa va takliflar

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat budjeti daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi mutanosiblikni saqlashda davlat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy ijtimoiy siyosat juda muhim o'rin egallaydi va bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham, davlat budjeti taqchilligini boshqarishni to'g'ri yo'lga qo'yish, unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish taraqqiyotning eng muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Ushbu holat esa, mamlakatning jahon hamjamiyatidagi nufuzi oshishiga, dunyo mamlakatlarining O'zbekistonga nisbatan ishonchi ortib borishiga olib keladi

Adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/docs/2304138?ONDATE=01.01.2025#2312792>
2. <https://t.me/minecofinuz/9021>
3. Konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligi 5,7 foizga yetdi. Bu avvalgi yillardagidan ancha ko'p – O'zbekiston yangiliklari – Gazeta.uz
4. https://uza.uz/uz/posts/2025-yil-davlat-byudzheti-izhtimoiy-tamoyilga-asoslangan-byudzhets_675824
5. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/26_I_I_Alimov.pdf